

XO'JALIK YURITUVCHI SUB'YEKTLARDA MOLIVAVIY HISOBOTLARNING XALQARO STANDARTLARGA MOSLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Xolmatova Nodiraxon Quddusovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Andijon fakulteti katta o'qituvchisi.

Joylovova Marjona Abdunazar qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Andijon fakulteti "Buxgalteriya hisobi va audit"

yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada korxonalarda moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga mos ravishda yuritish zaruriyati, ularni joriy etishdagi muammolar va yechimlar tahlil qilingan. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS)ning afzalliklari, ularning shaffoflik, taqqoslanish va investitsion jozibadorlikni oshirishdagi roli ko'rsatib berilgan. Shuningdek, O'zbekiston korxonalarida MHXSni qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Moliyaviy hisobot, xalqaro standartlar, MHXS, buxgalteriya hisobi, shaffoflik, taqqoslanish, investitsion jozibadorlik, audit, moliyaviy natijalar, balans, foyda va zarar hisobotlari, korxona faoliyati, kapital, aktivlar, majburiyatlar, buxgalteriya siyosati, axborot tizimi, hisobot ishonchliligi, xalqaro tajriba, normativ hujjatlar, integratsiya, modernizatsiya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы необходимости ведения финансовой отчетности предприятий в соответствии с международными стандартами, анализируются проблемы и пути их решения. Раскрываются преимущества применения Международных стандартов финансовой отчетности (МСФО) в повышении прозрачности, сопоставимости и инвестиционной привлекательности компаний. Приведены практические рекомендации по внедрению МСФО на предприятиях Узбекистана.

Ключевые слова: Финансовая отчетность, международные стандарты, МСФО, бухгалтерский учет, прозрачность, сопоставимость, инвестиционная привлекательность, аудит, финансовые результаты, баланс, отчет о прибылях и убытках, деятельность предприятия, капитал, активы, обязательства, учетная политика, информационная система, достоверность отчетности, международный опыт, нормативные документы, интеграция, модернизация.

Annotation: This article examines the necessity of preparing financial statements in accordance with International Financial Reporting Standards (IFRS), analyzing related problems and possible solutions. The advantages of IFRS in improving

transparency, comparability, and investment attractiveness are highlighted. Practical recommendations for implementing IFRS in Uzbek enterprises are provided.

Keywords: Financial reporting, international standards, IFRS, accounting, transparency, comparability, investment attractiveness, audit, financial results, balance sheet, profit and loss statement, enterprise activity, capital, assets, liabilities, accounting policy, information system, reliability of reporting, international experience, regulatory documents, integration, modernization.

Bugungi kunda xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatini to'g'ri yuritish uchun moliyaviy hisobotlar juda muhim. Chunki aynan shu hisobotlar orqali xo'jalik yurituvchi sub'yekt foyda yoki zarar ko'rayotganini, moliyaviy holati qandayligini bilish mumkin. Hozirgi davrda O'zbekiston iqtisodiyoti tobora rivojlanib bormoqda. Shu sababli xo'jalik yurituvchi sub'yektlar ham o'z hisobotlarini xalqaro talablar asosida tayyorlashi kerak. Bu talablar Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) deb ataladi. Ushbu standartlar yordamida xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning hisobotlari aniq, shaffof va solishtiriladigan bo'ladi. Ya'ni, xorijiy investorlar ham bu ma'lumotlarni tushunib, o'z sarmoyasini O'zbekistondagi xo'jalik yurituvchi sub'yektlarga kiritish imkoniga ega bo'ladi. Shu o'rinda savol paydo bo'lishi mumkin, ya'ni „Nega moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish kerak?“ Bunga javoban shunday deyish mumkin: Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga moslashtirishning bir necha sabablari bor:

- ✓ Birinchidan, bu xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning shaffofligini oshiradi, haqiqiy holati bilinadi.
- ✓ Ikkinchidan, hisobotlar boshqa davlatlardagi kompaniyalar bilan taqqoslanadigan bo'ladi.
- ✓ Uchinchidan, xorijiy sarmoyadorlar uchun bu xo'jalik yurituvchi sub'yektlar ishonchli hamkor sifatida ko'rinadi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda yirik xo'jalik yurituvchi sub'yektlar, tijorat banklari va aksiyadorlik jamiyatlari MHXS asosida hisobot tayyorlashni boshladilar. Bu mamlakat iqtisodiy tizimi uchun katta qadam hisoblanadi. MHXSni joriy etishda duch kelinadigan muammolar ham yo'q emas. Lekin xalqaro standartlarga o'tish jarayonida ba'zi qiyinchiliklar ham bor. Misol qilib quyidagilarni aytishimiz mumkin:

- Mutaxassislar yetishmaydi. Ko'p buxgalterlar MHXS haqida yetarli bilimga ega emas.
- Kompyuter dasturlari mos emas. Ba'zi buxgalteriya dasturlari xalqaro shakldagi hisobotlarni tayyorlay olmaydi.
- O'quv materiallari kam. MHXS bo'yicha darsliklar va qo'llanmalar hali yetarli emas.

Bu muammolar sababli barcha xo'jalik yurituvchi sub'yektlar hali to'liq MHXS tizimiga o'ta olmagan. Shu sababli bu muammolarni hal qilish yo'llarini topishimiz kerak bo'ladi. Bunda xalqaro standartlarni to'liq joriy etish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

- Buxgalterlarni o'qitish: Ya'ni, ularga MHXS bo'yicha maxsus kurslar tashkil qilish.
- Hisobotlarni avtomatlashtirish: Bunda, yangi buxgalteriya dasturlaridan foydalanish.
- Qonunchilikni moslashtirish: Ya'ni, xalqaro talablarni milliy qonunlarga yaqinlashtirish.
- Auditorlik nazoratini kuchaytirish: Shu jumladan, hisobotlarning to'g'riligini tekshirish tizimini yaxshilash.

Agar shu yo'nalishlarda ishlar olib borilsa, respublikamizdagi xo'jalik yurituvchi sub'yektlar ham xalqaro maydonda ishonchli hamkor sifatida tan olinadi.

Xulosa: Bugungi globallashuv jarayonida mamlakatimiz iqtisodiyotida faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi sub'yektlar uchun moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida yuritish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) moliyaviy axborotni yagona talablarga moslashtirish, ularni boshqa mamlakatlar hisobotlari bilan taqqoslash imkonini beradi. Bu esa nafaqat xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning ichki boshqaruv tizimini takomillashtiradi, balki xorijiy investorlar uchun ham ishonchli ma'lumot manbayi bo'lib xizmat qiladi. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga mos yuritilishi buxgalteriya hisobi tizimida shaffoflikni oshiradi, axborotlarning aniqligi va ishonchliligini ta'minlaydi. Shu orqali xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyati to'g'risida aniq tasavvur hosil qilish, risklarni baholash va to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, MHXS asosida hisobot yuritish xo'jalik yurituvchi sub'yektlarda buxgalteriya siyosatini qayta ko'rib chiqishni, yangi axborot tizimlarini joriy etishni va xodimlarning kasbiy malakasini oshirishni talab etadi. Bu jarayon qisqa muddatda murakkab tuyulishi mumkin, ammo uzoq muddatda xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning iqtisodiy barqarorligi, investitsion jozibadorligi va xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.A.Karimov, A.K.Ibragimov, N.K.Rizayev, N.M. Imamova – Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari. Darslik – T.: «MOLIYA», 2021 yil.
2. N.B. Abdusalomova, F.T. Temirov. Moliyaviy hisob. Darslik –T. «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» 2021 yil.
3. R.O.Xolbekov. Xalqaro buxgalteriya hisobi –T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» – 2021

4. **www.ifac.org-** „Moliyaviy hisobot va buxgalteriya sohasidagi xalqaro ta’lim standartlari’’ haqida ma’lumotlarni taqdim etadi.
5. **www.accaglobal.com-** „Buxgalteriya va moliyaviy hisob bo’yicha xalqaro malaka dasturlar’’ haqida ma’lumotlar taqdim etadi.
6. **www.oecd.org-** „Moliyaviy ta’lim, iqtisodiy rivojlanish va xalqaro iqtisodiyot bo’yicha ma’lumotlar’’ni taqdim etadi.